

**“MUALLIM” ILOVASI TARKIBIGA KIRITILGAN MATNSHUNOSLIK
VA ADABIY MANBASHUNOSLIKKA OID TERMINLAR IZOHLI
LUG‘ATI XUSUSIDA**

Murodillayeva Zohida Ikromjon qizi

ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

+998950416871

zohidamurodillayeva.@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid terminlar izohli lug‘atini yaratishda qaysi dasturlardan foydalanilganligi, ma’lumotlar bazasi qaysi manbalardan olinganligi hamda electron lug‘atning ishlash prinsiplari xususida so‘z yuritiladi.

Аннотация:

В данной работе рассматривается, какие программы используются для создания толкового словаря терминов, относящихся к текстологии и литературному источниковедению, из каких источников составлена база данных, а также принципы работы электронного словаря

Annotation:

This thesis focuses on which programs were used to create an annotated Dictionary of terms related to textual science and literary resource engineering, from which sources the database was derived, and on the principles of operation of the electron dictionary.

Kalit so‘zlar: Lug‘at, ma’lumotlar bazasi, Java, Android Studio IDE

Ключевые слова: Словарь, база данных, Java, Android Studio IDE

Key words: Dictionary, database, Java, Android Studio IDE

Bugungi kunda prezidentimiz tomonidan o‘zbek tili va adabiyoti sohasiga qaratilgan keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF– 4797-son “Alisher Navoiy nomidagi



Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida” gi farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ–2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹, 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi² farmon va qarorlarini misol keltirish mumkin. Bundan tashqari yurtimizda amalga oshirilayotgan ilm-fan sohasiga oid ishlar davlat siyosati doirasida belgilangan “...ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish”³ kabi strategik vazifalar terminologik lug‘atlar tuzish borasida chuqur izlanishlar olib borishni kun tartibiga qo‘ymoqda. “...har bir fan nazariyasi shu soha terminlariga (istilohlariga) asoslanib ish ko‘radi. Matnshunoslik to‘laligicha filologiya ilmiy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning yutuqlari asosida ish olib borishini e‘tiborga olsak, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik terminlarini, hozircha, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasi terminlari orasidan terib, o‘zlashtirish kerak bo‘ladi. Yaratilgan nashrlar hozirgi kunda sohada faol qo‘llaniladigan atamalarning hammasini qamrab olgan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, qadimdan ishlatib kelingan istilohlarning ko‘pini hozirgi lug‘atlardan topib bo‘lmaydi. Ulardan ayrimlarining izohi manbashunoslik va matnshunoslik tadqiqotlarida, ba’zi hollarda yo‘l-yo‘lakay uchrab qoladi”⁴. Ko‘rinib turibdiki, bugun sohaga oid lug‘at yaratish har qachongidan ham muhim masala hisoblanadi. Ushbu vazifani ado etish, lug‘at yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va uni zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida ommaga namoyish etish matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fanining bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biridir.

Mana shu vazifalar natijasi o‘laroq sohaga oid terminlar izohli lug‘ati yaratildi. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid terminlar izohli lug‘atining electron varianti “Muallim” ilovasi tarkibiga kiritilgan bo‘lib, lug‘atda 800 ga yaqin Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid terminlar va ularning izohlari kiritilgan. Ushbu terminlar Muhammadjon Hakimovning “Sharq manbashunosligi

¹Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

² Mirziyoyev Sh.M. “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy- tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori PQ – 2789,17.02.2017.

³Мирзиёев Ш.М. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ- 4947 -сонли Фармони // Халқ сўзи , 2017 йил, 8 февраль.- № 28 (6722)

⁴Содиқов. Қ. Тарихий лексикография.—Тошкент: 2011, 3-б.



lug‘ati”, Qosimjon Sodiqovning “Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari”, Alimullo Habibullayevning “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik”, P.P.Shabaratovning “Miniatura”, Sh. Sirojiddinovning “O‘zbek matnshunosligi qirralari”, Manzar Abdulxayrning “Asliyat va tabdil muammolari”, “Eski o‘zbek yozuvi va matnshunoslik” kabi asarlaridan tanlab olingan. Lug‘at yaratish uchun obyekt sifatida yana Abduqodir Ibrohimov va Asqarali Sulaymonovlarning “Kitobat san‘atiga oid atamalarning izohli-illustrativ lug‘ati” kitobi ham olingan, biroq undagi so‘zlar lug‘atda aks etmagan. Lug‘atda aks etgan asosiy terminlar Muhammadjon Hakimovning “Sharq manbashunosligi lug‘ati” dan olingan. Kitob muallifi, muhtaram ustoz, ilmiy faoliyatlarining ko‘p qismini qadimiy qo‘lyozmalarni o‘rganish, to‘plash va manbashunoslik bo‘yicha tadqiqotlar yaratishga bag‘ishlaganlar. Navoiy asarlari qo‘lyozmalarini uzoq yillar o‘rganish natijasida “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi”, “Alisher Navoiy “Xamsa”sining qo‘lyozmalari tavsifi”, “Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar” nomli kitoblari yuzaga kelgan. Ushbu kitobda 2135 maqoladan iborat. Lug‘at umuman manbashunoslik ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tarixga oid atamalar ham ko‘plab uchraydi. Matnshunoslik va manbashunoslikka oid lug‘atni tuzishda esa 700 ga yaqin termin olingan, boshqa terminlar esa yuqoridagi kitoblardan saralab olingan. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka bag‘ishlangan alohida kitob shaklidagi lug‘at shu bo‘lib, yana biz Abduqodir Ibrohimov va Asqarali Sulaymonovlarning “Kitobat san‘atiga oid atamalarning izohli-illustrativ lug‘ati”ni ham keltirishimiz mumkin. Ushbu kitobda kitobat san‘atida uchraydigan terminlarga misollar keltirilgan bo‘lib, ularning ba‘zilariga suratlar ham havola qilingan. Bu esa terminning yanada tushunarli bo‘lishini taminlaydi. Mana shu xususiyati bilan kitob boshqa kitobat san‘atiga oid kitoblardan ajralib turadi. Kitobda 400 dan ortiq atama ma‘nosi izohlangan. Biroq lug‘atda ushbu lug‘atdan so‘zlar olinmagan.

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid terminlar izohli lug‘atining elektron varianti “Muallim” ilovasi tarkibiga kiritilgan bo‘lib, lug‘atda 800 ga yaqin Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid terminlar va ularning izohlari kiritilgan. Ushbu terminlar Muhammadjon Hakimovning “Sharq manbashunosligi lug‘ati”, Qosimjon Sodiqovning “Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari”, Alimullo Habibullayevning “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik”, P.P.Shabaratovning “Miniatura”, Sh. Sirojiddinovning “O‘zbek matnshunosligi qirralari”, Manzar Abdulxayrning “Asliyat va tabdil muammolari”, “Eski o‘zbek



yoʻzuv va matnshunoslik” kabi asarlaridan tanlab olingan. Lugʻat yaratish uchun obyekt sifatida yana Abduqodir Ibrohimov va Asqarali Sulaymonovlarning “Kitobat sanʻatiga oid atamalarning izohli-illustriativ lugʻati” kitobi ham olingan, biroq undagi soʻzlar lugʻatda aks etmagan. Lugʻatda aks etgan asosiy terminlar Muhammadjon Hakimovning “Sharq manbashunosligi lugʻati” dan olingan. Kitob muallifi, muhtaram ustoz, ilmiy faoliyatlarining koʻp qismini qadimiy qoʻlyozmalarni oʻrganish, toʻplash va manbashunoslik boʻyicha tadqiqotlar yaratishga bagʻishlaganlar. Navoiy asarlari qoʻlyozmalarini uzoq yillar oʻrganish natijasida “Navoiy asarlari qoʻlyozmalarining tavsifi”, “Alisher Navoiy “Xamsa”sining qoʻlyozmalari tavsifi”, “Alisher Navoiy asarlarini koʻchirgan xattotlar” nomli kitoblari yuzaga kelgan. Ushbu kitobda 2135 maqoladan iborat. Lugʻat umuman manbashunoslik ilmiga bagʻishlangan boʻlib, unda tarixga oid atamalar ham koʻplab uchraydi. Matnshunoslik va manbashunoslikka oid lugʻatni tuzishda esa 700 ga yaqin termin olingan, boshqa terminlar esa yuqoridagi kitoblardan saralab olingan. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka bagʻishlangan alohida kitob shaklidagi lugʻat shu boʻlib, yana biz Abduqodir Ibrohimov va Asqarali Sulaymonovlarning “Kitobat sanʻatiga oid atamalarning izohli-illustrativ lugʻati”ni ham keltirishimiz mumkin. Ushbu kitobda kitobat sanʻatida uchraydigan terminlarga misollar keltirilgan boʻlib, ularning baʼzilariga suratlar ham havola qilingan. Bu esa terminning yanada tushunarli boʻlishini taminlaydi. Mana shu xususiyati bilan kitob boshqa kitobat sanʻatiga oid kitoblardan ajralib turadi. Kitobda 400 dan ortiq atama maʼnosi izohlangan. Biroq lugʻatda ushbu lugʻatdan soʻzlar olinmagan.

Ilova ichidagi lugʻat Android Studio IDE dasturida yaratilgan boʻlib, dasturlash tili Java hisoblanadi. Lugʻat-avtomatlashtirilgan axborot tizimi boʻlib, axborot tizimi obyekt sifatida Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid terminlar izohli lugʻati tanlab olingan va lugʻat tarkibi Sqlite maʼlumotlar bazasiga joylashtirilgan. Elektron lugʻat avtomatlashgan axborot tizimi, yaʼni maʼlumotlar bazasiga foydalanuvchi tomonidan maʼlumot kiritilmaydi, tizim tomonidan hech qanday axborot qayta ishlanmaydi. Tizim administratori tomonidan oldindan kiritilgan maʼlumotlar foydalanuvchiga taqdim etiladi. Foydalanuvchi faqat taqdim etilgan soʻzlarni tanlab tegishli maʼlumotlarni oladi. Lugʻatni yaratishda quyidagi amallar bajarilgan:



Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid terminlar bazasini shakllantirish.

Shakllantirilgan terminlarni razmetkalash, lemmatizatsiya, parsing, tagging bosqichlaridan o'tkazish;

To'plangan terminlarning ishonchli, ixcham va electron lug'atning qidiruv tizimiga mos shaklda electron lug'atda aks etishini ta'minlash;

Jamlangan terminlar ma'lumotlar bazasining ko'zda tutilgan dasturiy ta'minotini yaratish hamda uni muvofiq keluvchi korpusda aks ettirish.

Lug'at 4 qismdan iborat:

- 1.Lug'at interfaysi – lug'atning hali ishga tushmagan holatdagi dastlabki ko'rinishi.
- 2.Qidiruv oynasi – foydalanuvchi so'z yoki atama qidirish imkonini beruvchi oyna.
- 3.Natijalar oynasi – qidirilgan so'z haqida ma'lumotlar chiquvchi oyna.
- 4.Lug'at ma'lumotlar ombori– electron lug'at ma'lumotlarini saqlovchi ombor. U jadval shaklida bo'lib, foydalanuvchiga jadval shaklida emas, balki lug'at maqolasi shaklida ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, oynada izlangan termin izohi va izoh olingan manba ko'rsatiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, electron lug'at allaqachon yaratilgan nashr lug'atlarning shunchaki electron(skanerlangan, raqamlashtirilgan) versiyasi emas, u butunlay mustaqil mahsulot bo'lib, uning mavjud shakli mantiqiy ravishda davom etadi, mazmun komponentini to'ldiradi⁵.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy- tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori PQ – 2789,17.02.2017.
3. Мирзиёев Ш.М. "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" ги ПФ- 4947 -сонли Фармони // Халқ сўзи , 2017 йил, 8 февраль.- № 28(6722)
4. Содиков. Қ. Тарихий лексикография.—Тошкент: 2011
5. Селегей В.П. Электронные словари и компьютерная лексикография. URL: http://www.lingvo'da.ru/transfo'rum/articles/selegey_al.asp.

⁵Селегей В.П. Электронные словари и компьютерная лексикография. URL: http://www.lingvo'da.ru/transfo'rum/articles/selegey_al.asp

